



BOSHLANG'ICH SINIF ONA TILI DARSLARIDA TINISH BELGILARINI O'RGANISH

Komilova Sabina Jo'rabek qizi

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti talabasi

Anotatsiya: *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf ona tili darslarida tinish belgilarini o'rgatishning nazariy va amaliy jihatlari yoritilgan. O'quvchilarda to'g'ri yozish va nutq madaniyatini shakllantirishda tinish belgilarining o'rni tahlil qilingan. Dars jarayonida samarali metod va usullardan foydalanish, interfaol yondashuvlar orqali o'quvchilarning bilimini mustahkamlash yo'llari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, mashqlar tizimi va didaktik o'yinlar yordamida tinish belgilarini o'zlashtirish samaradorligini oshirish masalalari bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, ona tili darslari, tinish belgilar, punktuatsiya, o'qish savodxonligi, yozma nutq, didaktik o'yinlar, interfaol metodlar, o'quv jarayoni, metodika*

Boshlang'ich ta'lim tizimi o'quvchilarning savodxonligini shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Ayniqsa, ona tili darslarida o'quvchilarning to'g'ri yozish, fikrini aniq va ravon ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirish asosiy vazifalardan biridir. Bu jarayonda tinish belgilarini o'rgatish muhim o'rin tutadi. Tinish belgilarining to'g'ri qo'llanilishi yozma nutqning aniqligi va tushunarligini ta'minlaydi. Agar o'quvchi tinish belgilarini bilmasa yoki noto'g'ri qo'llasa, matn mazmuni buziladi. Shu sababli boshlang'ich sinflarda punktuatsiyani o'rgatish metodikasini takomillashtirish dolzarb vazifalardan biridir. Mazkur maqolaning maqsadi – boshlang'ich sinf ona tili darslarida tinish belgilarini o'rgatishning samarali usullarini tahlil qilish va amaliy tavsiyalar berishdan iborat.

Tinish belgilari -muayyan tilda yozma nutqni to'g'ri, ifodali, mantiqli bayon qilishda, uni ixchamlashda, yozma nutq qismlarining o'zaro mantiqiy grammatik munosabatlarini ko'rsatish uchun xizmat qiladigan muhim grafik vositalar. Tinish belgilari markaziy, asosiy belgilar tizimiga (harflar va tinish belgilari) mansub bo'lib, u qo'shimcha, yordamchi belgilar tizimidan (raqamlar, turli fanlarga oid ilmiy belgilar) ma'lum jihatlari bilan farq qiladi. Tinish belgilarining yozuvda qo'llanilishi o'ziga xos tizimga ega. Bu tizim —tinish belgilari miqdori, qo'yilish tartibi va qo'llanish prinsiplari yig'indisi —punktuatsiyani vujudga keltiradi. Bular yozuvning boshqa vositalari (harflar, raqamlar, diakritik belgilar) xamda til birliklari (so'zlar, morfemalar) bilan ko'rsatish mumkin bo'lmagan turlicha fikriy munosabatlar va psixologik holatlarni ifodalashda ham muhim ahamiyatga ega bo'lib, yozma nutqning tushunilishini osonlashtiradi. Tinish belgilarining asosiy vazifasi nutqning mazmunini



bo‘linishini ko‘rsatish, shuningdek, uning sintaktik tuzilishi va intonatsion jihatini aniqlashga yordam berishdir.

Hozirgi o‘zbek yozuvida tinish belgilari soni 10ta: nuqta, so‘roq belgisi undov belgisi, vergul, qavs, tire, ko‘p nuqta, nuqtali vergul, qo‘shtirnoq. Ularning aksariyati 19-asr 2 yarmida ayrim gazlama va toshbosma kitoblarning nashr etilishi bilan paydo bo‘lgan.

belgilari —muayyan sintaktik tuzilmaning yoki umuman gapning chegarasini bildirish, biron bir gap bo‘lagini intonatsion mazmuniy jihatdan ajratib ko‘rsatish, nutq qaratilgan shaxs yoki predmet nomiga qamrab olingan, shuningdek, yozuvchi (so‘zlovchi)ning sub’yektiv munosabati ifodalangan sintaktik tuzilma chegarasini ko‘rsatish uchun xizmat qiluvchi qavs, qo‘shtirnoq, yagona qo‘shaloq belgi sifatida qo‘llanuvchi vergul, ayni shu vazifadagi tire; b) ajratuvchi.

Tinish belgilari ning qo‘llanish usuli va tartibi punktuatsiyaning mantiqiygrammatik, uslubiy va differensiatsiya(farqlash) prinsiplari asosida belgilanadi. Ma’lumki, punktuatsiya tinish belgilarining ishlatilishi haqidagi qoidalar yig‘indisidir. “Puntuatsiya ham yozuv kabi kishilar orasidagi aloqaning muhim vositalaridan biri sanaladi”. Boshlang‘ich sinflarda to‘rtta tinish belgisi: gap oxirida nuqta, so‘roq, undov belgisi hamda uyushiq bo‘lakli gaplarda vergulning ishlatilishi haqidagi qoidalar o‘rgatiladi.. Boshlang‘ich sinflarda o‘rgatiladigan tinish belgilari kam bo‘lishiga qaramay, o‘qituvchi har bir sinfda tinish belgilari ustida muntazam ish olibborishi zarur. Kichik yoshdagi o‘quvchilarni tinish belgilari bilan tanishtirishda o‘qituvchi, avvalo, ularning yozma nutqda ishlatilishi va o‘rnini ko‘rsatadi. Tinish belgisi fikrni to‘g‘ri, boshqalarga tushunarli qilib ifodalash uchun muhim ekanini tushuntiradi. Masalan, nuqtaning roli bilan elementar tarzda tanishtirish uchun gaplarga ajratilmagan (tinish belgilari qo‘yilmagan) yaxlit matn o‘qitiladi; o‘quvchilar bunday matnni o‘qish va mazmuniga tushunish qiyin ekanligiga ishonch hosil qiladilar. Puntuatsiya semantik, sintaktik va intonatsion qoidaga asoslanadi. Bu uch asos bir-biriga o‘zaro ta’sir qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Rahmatullayev Sh. – Hozirgi o‘zbek adabiy tili (puntuatsiya). Toshkent, 2018.
2. Qosimova K., Matjonov S. – Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent, 2019.
3. Abdullayeva Q. – Boshlang‘ich ta’lim pedagogikasi. Toshkent, 2020.
4. Nurmatova M. – Ona tili darslarida interfaol metodlardan foydalanish. Toshkent, 2021.
5. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi – Boshlang‘ich sinf ona tili darsliklari. Toshkent, 2022.